



UDK: 821.111+821.512

Damekhan AYIMBETOVA,
Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: danyaimbetova@gmail.com

O'zDJTU dotsenti, PhD N.Maxmudova taqrizi asosida

THE FOLKLORIC ROOTS OF ANIMALISM IN IBRAYIM YUSUPOV'S POETRY

Annotation

This article examines the use of animalistic imagery in the works of Ibrayim Yusupov, highlighting its deep connection with the symbolic and philosophical meanings rooted in Karakalpak folk traditions. Through the images of nightingale, snake, horse, wolf, owl, shrike, and deer, the poet artistically conveys the nation's moral values and worldview. Themes such as the eternal struggle between good and evil, the harmony between humans and nature, and the cycle of life and death are reflected through folkloric symbolism. Yusupov does not merely replicate traditional images but reinterprets them from a modern perspective, enriching them with philosophical depth and ecological awareness. The article examines how the poet skillfully develops folk images to convey universal and national ideas with poetic precision and cultural sensitivity.

Key words: Ibrayim Yusupov, animalistic imagery, Karakalpak folklore, nightingale, snake, deer, wolf, owl, shrike, horse, symbolic meaning, philosophy, national tradition, ecological thinking, poetic interpretation.

ФОЛЬКЛОРНЫЕ КОРНИ АНИМАЛИЗМА В ПОЭЗИИ ИБРАИМА ЮСУПОВА

Аннотация

В данной статье рассматриваются зооморфные образы в поэзии Ибраима Юсупова, их глубокая связь с символическими и философскими смыслами, укоренёнными в каракалпакских фольклорных традициях. Через образы соловья, змеи, лошади, волка, филина, жулана и косули поэт художественно передаёт моральные ценности народа и его мировоззрение. Темы борьбы добра и зла, гармонии человека и природы, жизни и смерти раскрываются посредством фольклорной символики. Юсупов не просто воспроизводит традиционные образы, но и осмысляет их с современной точки зрения, придавая им философскую глубину и экологическое звучание. В статье анализируется, как поэт творчески переосмысливает народные образы, выражая через них как общечеловеческие, так и национальные идеи.

Ключевые слова: Ибраим Юсупов, зооморфные образы, каракалпакский фольклор, соловей, змея, косуля, волк, филин, жулан, лошадь, символика, философия, народные традиции, экологическое мышление, поэтическая интерпретация.

IBRAYIM YUSUPOV ANIMALIZMINING FOLKLOR ILDIZLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Ibrayim Yusupov she'riyatidagi animalistik obrazlar tahlil qilinib, ularning qoraqalpoq xalq og'zaki ijodi — ertaklar, dostonlar va afsonalar bilan bo'lgan uzviy aloqasi ochib beriladi. Muallif bulbul, ilon, ot, bo'ri, boyo'g'li, zag'izg'on va kiyik kabi folklor obrazlari orqali xalqning falsafiy va axloqiy qadriyatlarini poetik uslubda aks ettiradi. Ayniqsa, yaxshilik va yovuzlik, hayot va o'lim, inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik kabi mavzular folklor ramzlari yordamida chuqur ifodalangan. Yusupov xalq an'analarini faqat saqlab qolish bilan cheklanmay, ularni zamonaviy qarashlar, ekologik tafakkur va shaxsiy badiiy yondashuv bilan boyitgan. Maqolada shoiming folklor obrazlariga yangicha falsafiy mazmun baxsh etishdagi mahorati yoritiladi. **Kalit so'zlar:** Ibrayim Yusupov, animalistik obrazlar, qoraqalpoq folklori, bulbul, ilon, kiyik, bo'ri, boyo'g'li, zag'izg'on, ot, ramziy ma'no, falsafa, milliy an'ana, ekologik tafakkur, poetik talqin.

Kirish. Ibrayim Yusupov she'riyatidagi animalistik obrazlar qoraqalpoq folklorining ramziy va falsafiy ma'nolari bilan boy manbalariga chuqur ildiz otgan. Qoraqalpoq xalq an'analarida hayvonlar ko'pincha hayotiy qadriyatlar, insoniy fazilatlar va butun xalq taqdirining ramzi sifatida talqin etiladi. I.Yusupovning ijodida ushbu an'ananing ta'siri yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, "Bulbil uyasi" poemasi bulbul obrazi qadimdan ma'naviy poklik va ijodiy ilhom timsoli sifatida qaraladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shoir bu yerda xalq tasavvuridagi bulbul obraziga bevosita murojaat qilgan:

"Bir ilohiy qustay o'zin sir tutup,
Bulbiller koring sayrasar uzaq." [14]

Bu yerda bulbul, xalq ertaklaridagi kabi, ichki poklik va ma'naviyat timsoli sifatida namoyon bo'ladi. I.Yusupov bu ramzni ehtiyotkorlik bilan saqlagan holda, unga yangi falsafiy va ijtimoiy chuqurlik baxsh etgan.

Folklorning ta'siri shuningdek, ilon obrazini yovuzlik, xavf va tahdidning allegorik timsoli sifatida ishlatilishida ham ko'rinadi. Qoraqalpoq xalq madaniyatida ilon odatda ayyorlik ramzi sifatida qaraladi va bu tasavvur I.Yusupovning poemasida ham aks etgan bo'lib, unda ilon bulbulga qarama-qarshi obraz sifatida keltirilgan:

"Shaqmaq shaqilganda janı ishqipı,
Kordi bir jılandı kelgen ısıqıp,
Qus baygustın jarılğanday juregi,
Ushti-qondi jan sawğalap qıshqırıp.
Sonın arasında boldı tasırılı,
Jılanta bir kirpisheshen asıldı.
Quyırğınan tıslep tartıp aldı da
Tobanayaq bolıp basın jasırdı" [15]

Shu tarzda, folklor ramziyligi va dualizmi, yaxshilik – yovuzlik kurashi I.Yusupov poetikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, uning asarlariga chuqur falsafiy asos bergan. Bu kabi ideya aynan ilon obrazi misolida muallifning "Gilemshi

hayal haqqida haqiqatliq" poemasida ham ijodiy pafosni kuchaytirish, syujetning o'quvchiga emotsional tasirchanligini oshirish maqsadida qistirma epizod tarkibida qo'llanilgan. Masalan:

"Suv kórin-di sol waqta bir jiradan,
Shapti jániwar asiqitirp ilágin,
Sol máhálde "shirp" etip bir oq jılan,
Baygus ilaq jerdi súzip quladı.
Jan aybatı menen kiyik súzdi de,
Ótkir tisin urdı kelip jılanğa,
Oq jılandı "gırt" etkizip úzdi de,
Awzı menen ilaqtırdı dalańğa." [13].

Ushbu misralarda ilon va kiyik obrazlari orqali xalq og'zaki ijodidagi dualistik qarama-qarshilik – yaxshilik va yovuzlik kurashi dramatik tarzda ochib beriladi. I.Yusupov xalq tasavvurida ayyorlik va xavf timsoli bo'lgan ilonni suv izlagan begunoh kiyikka qarshi qo'yadi. Bu manzarada kiyik poklik, zaiflik va hayotiy intilishlarni ifodalasa, ilon esa unga qarshi shafqatsiz tahdid va o'lim xavfini mujassam etadi. Shoir tasviridagi kiyikning o'limi tabiatning ayovsiz qonunlari va inson hayotidagi dramatik vaziyatlarning timsoliga aylanadi. Poemaning ushbu sahnasi orqali muallif folklor obrazlaridan foydalangan holda insoniyatning azaliy va falsafiy muammolari – hayot va o'lim, yaxshilik va yovuzlik kurashini badiiy ta'sirchanlik bilan aks ettiradi.

I.Yusupov she'riyatining o'ziga xosligi shundaki, u ko'pchilik she'rilarida obrazlarni yaratishda folkloridan me'ros bo'lib qolgan an'anaviy tasvirlarni foydalansa ham, bazi o'rinlarda o'sha an'anani buzgan holda, unga yangicha yondoshuv bilan o'z pozitsiyasini bildiradi. Masalan, ilon obrazini "Tiyme o'gan" she'rida o'ziga xos ta'riflagan:

"Tiyme bala, jılanğa
Iyreñlep baratırğan!
Jasaw ushın bumanda
Oldağı jaratılğan." [11]

Ushbu she'rda I.Yusupov ilon obrazini folkloridan kelgan odatiy yovuzlik va xavf timsoli sifatida emas, balki tabiatning teng huquqli mavjudoti sifatida tasvirlaydi. Shoir ilonni inson bilan yonma-yon yashashga haqli mavjudot sifatida ko'rsatib, uning tabiatdagi mavjudligiga hurmat va ehtiyohtorlik bilan qarashga chaqiradi. Shunday qilib, I.Yusupov xalq an'analardagi salbiy obrazni qayta talqin qilib, insonning ekologik ongini shakllantirishga qaratilgan yangi poetik va falsafiy qarashni ilgari suradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Qoraqalpoq milliy folklorida hayvonlar ko'pincha ertak va afsonalarning qahramonlari sifatida turli insoniy fazilatlar va axloqiy qadriyatlarining ramzi bo'lib xizmat qiladi. Masalan, qoraqalpoq xalq dostonlari va ertaklarida ot obrazi sadoqat va fidoyilik, xalqning kuchi va bardoshlilikini ifodalaydi.

Masalan "Alpomish", "Maspatsha", "Qoblan" singari xalq dostonlarida qahramon obrazini kashf qilishda, ularning xarakterlarini yaratishda, qolabersa, asarning goyasiga, syujetning keyingi rivojiga katta hissa qo'shib, umuman asar kompozitsiyasida sezilarli ahamiyat kasb etgan. Xalq dostonlarida botirning o'ziga "ot tanlashi" an'anaviy motiv bo'lib hisoblanadi. Ularga kóra, botir gayritabiiy tarzda dunyoga keladi, tez ulg'ayadi, safarga jonash oldidan o'ziga ot tanlaydi. Ular tanlagan tulporlarda ham gayritabiiy hislatlar bor bo'ladi. Ularga o'ziga xos nom beriladi. "Alpomish" dostonida Alpomishning oti "Boychubor", Qarajonning oti "Qora ot" edi, "Maspatsha" dostonida esa "Májnún at", "Go'rug'li" dostonida G'iyat deb ataydi. Otlarning o'ziga xosligi tariflashda badiiy tasvir vositalaridan, giperbola, metafora, sinekdoxa kabi troplardan unumli foydalanilgan. Boychuborning yolg'a chiqqanligini, uning tuyuqlarining tovushlarini necha ming chaqirimdan Qarajonning eshitishi giperbolik tasvir bo'lib, otning gayritabiiy kuchga ega ekanligini tariflaydi. Va yana Alpomishni zindondan aynan

Boychuborning olib chiqishi ham, otlarning insonga yaniy egasiga eng sodiq do'st ekanligini ko'rsatadi.

Bu an'ana I.Yusupov she'riyatida ham aks etib, "Atlar" she'rida ifoda topgan:

"...Atlar, atlar! Alis ketken qiyalday,
Tórt ayaqtan tógilgen gúl hóneri...
Adam júrisiñnen qanaat qılmaı,
Júweniñdi bastan sıyırp aldı.

...

Al endi ullı toy kúni shaw-shuwlı,
Báygi ham ilaqqa shıqqanda sizler,
Adam namısı ushın qaytip shabıwdı,
At namısı menen kórsetesizler....
Atlar, atlar!

Máñgi dostı adamnıñ... " [7]

Bu yerda ot obrazi qoraqalpoq folkloridagi an'anaviy sadoqat, jasorat va inson bilan tabiat uyg'unligining timsoli sifatida aks ettirilgan. Shoir otlarni insonning abadiy va sodiq hamrohi sifatida tasvirlar ekan, ayni paytda zamonaviy taraqqiyotning ta'sirida ularning qadrsizlanishi, texnika oldidagi ojizligi va inson tomonidan unutilib yuborilayotganidan afsuslanadi. Bu bilan shoir ot obraziga falsafiy va ijtimoiy mazmun yuklab, an'anaviy folklor motivlarini zamon muammolari bilan bog'lab, ularga yangicha mazmun baxsh etadi. Shoirning "Keshki jo'l oylari" sherida ham lirik qaharmonning qarilik chog'igacha butun umri davomida unga yo'ldoshlik qilgan qadrdon otining obrazi tasvirlangan.

"Enshime tiyip ediñ tay wağında,
Qıyalpaz bala kewlim bay wağında,
Dorbańda er basına qıstırılğan
Jem emes, kitap júrdı bar wağında.

...

Shuw, janım, kóligim joq sennen basqa,
Jaqsı-jaman iyeñ joq mennen basqa,
Hesh qanday mashınağa awmasbayman,
Dáwlet bası malımsań, jiyren qasqa!" [12]

I.Yusupovning ushbu she'rida ot obrazi inson hayotining turli davrlarini, ayniqsa qahramonning o'tmish xotiralarini va hayotdagi sadoqatli hamrohini aks ettiruvchi ramziy timsol sifatida tasvirlanadi. I.Yusupov an'anaviy folkloridagi ot obraziga shaxsiy va tarixiy nuqtai nazardan qarab, insonning qiyinchiliklar davridagi sadoqat va hamkorlik tuyg'ularini ifodalaydi. Shoir uchun ot nafaqat chorva hayvoni, balki murakkab hayot yo'llarida inson bilan birga kechgan azob-uqubatlarni bo'lishuvchi yaqin do'st va ruhiy hamroh sifatida namoyon bo'ladi. Bu bilan muallif an'anaviy obrazni badiiy va hissiy chuqurlik bilan boyitib, unga zamonaviy insonning ichki kechinmalari va falsafiy mulohazalarini singdiradi. I.Yusupov sheriya-tida ot obrazi bundan keyingi o'rinlarda ko'proq ko'chma ma'nolarda kelganligini ko'ramiz.

Shuningdek, g'arb xalqlarining folklorida bo'ri obrazi tez-tez uchrab, bir vaqtning o'zida xavf va donolik timsoli sifatida talqin qilingan. Masalan: "Qizil qalpoqcha", "Bo'ri va yetti ilqocha", "Bo'ri va to'ng'iz" ertaklarida yovuzlik timsolini aks ettirgan bo'lsa, "Ivan Tsarevich va kulrang bo'ri" ertagida bo'ri aqilli, sodiq va sehrli kuchga ega qahramon. Ertakda Ivan har safar og'ir vaziyatga duch kelganda bo'ri paydo bo'ladi va unga yordam beradi. Bundan tashqari, mualliflar tamonidan qayta ishlangan adabiy ertaklarda ham, bo'ri insonga do'st, falsafiy fikr yurutuvchi qahramon sifatida ko'rsatiladi. Sergey Kozlovning "Kak Yojik s Medvejonkom spasli Volka"[6] singari hikoyalarda bo'ri ruhiy qidiruvdagi qahramon obrazida tasvirlangan.

Qoraqalpoq folklorida esa, bo'ri obrazi azaldan yovuzlikni, insoniy kamchiliklarni, xususan, maqtancholik va kibni ifodalash uchun ramziy vosita sifatida foydalanilgan. Masalan, folkloridagi "Maqtanshaq qasqir" ertagida

tasvirlangan bo'ri o'zini atrofdagi boshqa bo'rilardan kuchliroq va ustunroq sanab, maqtanchoqligi sabab o'zini ortiqcha baholaydi[3; 186-187-b.]. Uning o'ziga bo'lgan haddan tashqari ishonchi va mag'rurligi oxir-oqibat uni kulgili va ayanchli holatga tushirib qo'yadi. Aynan shu jihati bilan ertakdagi bo'ri obrazi pedagogik xarakter kasb etib, kibr va manmanlikning salbiy oqibatlarini ko'rsatish orqali tinglovchiga axloqiy saboq beradi. Shu tarzda bo'ri obrazi orqali insonlarni kamtar va o'z qobiliyatini to'g'ri baholashga chaqiruvchi folklor an'anasi namoyon bo'lgan.

Shoir J.Aymurzaevning "Ulim tiñla" sherida ham bo'ri obrazi urush yillaridagi Vatanga bostirib keleyotgan dushmanlar simvolida kelgan.

"Ulim tiñla! bul jeñiske jollama,
Jüregimde ıza kegi qaynağan,
Men bilemen jerdi basıp jatır jaw,
Qanğa qumar qasqır, qanğa toymağan.
Ulim tiñla! qasqır qozı dushpanı
Sen qozımsañ, seniñ ushın men qurban.
Watanımnın quwmaq ushın dushpandı,
Kerekli jerinde bolaman qurban." [2]

Bu yerda hayvonat obrazi yaqinlashib kelayotgan xavfni tasvirlash uchun ishlatilgan bo'lib, xalqning hayot sinovlari va qiyinchiliklari haqidagi chuqur folklor tasavvurlarini aks ettiradi.

Tahlil va natijalar. Ibroyim Yusupov she'riyatidagi animalizmlarning folklorlik ildizlari eng avvalo afsonalarda ko'rinadi. Masalan, shoirning she'rlarida boyo'g'li, zag'izg'on kabi obrazlar qoraqalpoq folkloridagi afsonaviy syujetlar asosida yaratilgan. Muallifning "Boyog'li" she'riga qaraylik. "Afsonaga ko'ra, bir boy kishining bir o'g'il va bir qiz farzandlari bo'libdi. Ular juda erka bo'lib voyaga yetibdi. Ular doimo nolib yashar ekan. Bir kuni ular deraza oldida o'tirib nola qiladi: "Qush bo'lib parvoz qilsak, boshimiz oqqan joyga ketsak" deb. Buni eshitgan otasi g'azab bilan, "uydan ham bezgilaring keldimi? Murodi hosil bolgurlar!" deb ularni qarg'aydi. O'sha zahoti uyni qora tutin qoplab, boyning farzandlari o'rnida ko'rimsiz qo'sh qushlar paydo bo'ladi. Ular pir-pirlab uzoqlarga uchib ketadilar. O'shandan buyon bu qushlar xalq tig'iz yashamaydigan joylarda, eski harobaxonalarda yashar ekan. Xalq og'zida ota-onasidan qarg'ish olgan qushlar, ular kimning tomiga qo'nsa, o'sha uyda motom bo'ladi degan irimlar ham paydo bo'lgan. Bularning nomi fonetik o'zgarishga uchrab, boyning o'g'li "boyog'li", boyning qizi "boyqush" deb atalib ketgan ekan." [1] Bu afsonaning shoir she'riyatidagi ko'rinishi shunday:

"Türin ubijıqtay, ükili kózin,
Dım bir zıyanatsız qussań-aw ózin.
Bıraq, jurt awzında kóp jaman sózin,
Neden jamanatlı boldın bayıwlı?
İraştan sen baydın ulı boldıńba?
Áke-shesheńnen jaslay ġargıs aldın ba?
Ógey shesheń saġan dóhmet qıldıma?
Neden jamanatlı boldın bayıwlı?
... Meniń demim şhalalasıp qalıppa,
Sen ne dep qıshqırıp tursañ, bayıwlı? " [8]

Muallifning "Kegeyli boyindagi kesh" she'rida esa, zag'izg'on obrazi folklordan me'ros kelayotgan an'adan chetlagan holda, yangicha talqin qilingan. Xalq og'zaki ijodida zag'izg'on ham qarg'ish olgan qush sifatida salbiy obrazdir. "Bir kuni Muhammad payg'ambar dushmanlardan qochib kelayotganida, yo'lda bir chirigan daraxtning kavagiga yashiringan. Uning chakmoning uchi ko'rinish qolibdi. Shunda zag'izg'on uning ortidan quvib kelgan dushmanlarga "bu yerda bir nima bor" deb chakmonni tumshig'i bilan tortib uni sotib beradi. Dushmanlar buni payqab, payg'ambarni tutib olibdi. Shunda payg'ambar "Ilohim, og'zingdan tug'gin"- deb uni qarg'agan ekan". Va shundan buyon xalq og'zida

zag'izg'on og'zidan tug'adi degan gap qolibdi[4]. Xalq zag'izg'on haqida juda salbiy fikrlaydi. Uni o'g'ri qush, bemaza qush deb aytadi. Lekin, Ibrayim Yusupov she'riyatida esa butunlay yangicha talqin qilinganligi ko'ramiz:

"Qaysı bir qus izlep kóldeneñ baxtıñ,
Ketse ketebersin Qızıl qıyaġa.
Ash-toġına kónip sen usı jaqtıñ,
Keste toqıp otıraber uyada." [16]

Muallif she'rda zag'izg'onni sadoqatli, sabrli qush sifatida ta'riflagan. Shu Vatanning bori-yog'iga ko'nib, qishda sovuqda ham, jazirama issiqda ham Vatani tark etmaydigan sodiq obraz sifatida ko'targan. "Kashta tikib o'tiraber uyangda" degan satrlarda esa folklordagi bolalar "Hakke qayda?" nomli bolalar o'yini keltirilgan.

"Hákke qayda?
Uyasında.
Ne qılıp atır?
Keste toqıp atır.
Kestesi qanday?
Alaqanday.
Kimler ushın?
Sizler ushın..." [5.]

Ushbu bolalar o'yin she'rida "hakke" (zag'izg'on) obrazi qoraqalpoq xalq an'analarida mavjud bo'lgan salbiy qarashlardan farqli ravishda, ijobiy timsol sifatida taqdim etiladi. Bu o'yin qo'shig'ida hakke mehnatsevarlik, sabr va mehr-muruvvatning yorqin ramzi bo'lib gavdalanadi. SHE'rda zag'izg'onning kichkina uyasida kashta tikishi oddiy hayvoniy tasvir emas, balki insonlarning kundalik hayotidagi mehnatsevarlik, samimiyat va bir-biriga bo'lgan g'amxo'rlikni ifodalovchi chuqur ramziy obraz sifatida talqin qilinadi. Bu orqali bolalar ongida qush obrazlari orqali ezgu insoniy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi folklor an'anasi namoyon bo'lgan.

Shuningdek, I.Yusupovning ko'plab she'rlarida kiyik obrazi ta'riflangan. Masalan, "Tumaris" poemasida kiyik obrazi juda yaxshi ta'riflangan. Poemada muallif xalq og'zaki ijodidagi "ayollar shoxligi" haqidagi afsonani mohirona foydalangan. Qadimda barcha ayollar birigib, ayollar shoxligini tuzadi. Erkak zotiga qaram joyimiz yo'q, ular bizga kerak emas. Biz o'zimizni asray olamiz de erkaklardan voz kechadi. Lekin, vaqlar o'tib ularning podshoxi bunday hayotning mazmuni yo'qligini tushnib yetadi.

"Quyash túsip, gúl kógermey,
Hárre qonbay gúlden-gúlge.
Daraq sırqıp miywa bermey,
Qanday sán bar bul ómirde?
Patsha hayal da turmısta
Bara-bara bunı uqtı...
Dástúr atlap odaġaylap,
Antın buzıp abaysızda
Qońısı patsha menen "oynap"
Ana bolıp qaldı qızġa" [9]

Shunday qilib, ayol podshoh to'qqiz oy, to'qqiz kun to'lganda o'rmon ichiga borib, bug'oz kiyikning inida kiyik bilan barabar farzandini dunyoga keltiradi. Hiyla qilib, bolasini kiyikning inida qoldiradi. Oradan yetti muz erib, yetti bahor keladigan vaqlar o'tib, padshohlikdagi qizlar kiyik ovlab yurganda qizni tutib oladi. Va uni saroyga olib keladi. Ayol podshoh yetti yil oldin o'zi tashlab ketgan qiz ekanligini tushinib yetadi. Hiyla bilan, tushimda Quyosh tangrim "senga bir qiz farzand yubordim" degandi deb, qizni asrab oladi. Lekin bu qizning uyga ko'nishi juda qiyin bo'ladi.

"Wa, Tumaris! esińdeme,
Er jetkenshe kónbey úyge,
Dúzge qashıp, kiyiklerge,
Keter ediń geyde-geyde?
...Dúz kórgen dawjúrekliġin
Tuwġan ay, qas-qabaqların,

Kiyik minez úrkekligín,
Kiyikshe tik ayaqlarín,
Bildim, miyras bolıp gárez
Qızlarına keń dalanín
Jeyran júris, kiyik minez,
Sen arqalı darıgánıń...”[10]

Qoraqalpoq adabiyotida shoirlar qizlarni ta’riflashda ularni qushlarga, kiyiklarga o’xshatishgan. Ajiniyoz shoir qizlarni “Turnadek otirib, so’nadek songen” deya qushlarga o’xshatgan bo’lsa, Ibrayim Yusupov bo’lsa qizlarning yurishlarini chiroyliligini kiyiklarga o’xshatgan. Poemada muallif, o’sha kiyik boqib katta bo’lgan qiz – Tumaris ekanligini aytib, “sahro xalqining qizlari nega kiyikcha tik yuradi desam, sendan me’ros qolgan ekan da. Axir sen yurishni kiyikdan o’rganding-ku. Sening onang kiyik-ku!” – degan g’oyani ilgari surmoqda. Dunyo adabiyotida insoniyat bolasini hayvonat boqib katta qilganliga juda ko’plab misollar bor. Bu jahon adabiyotida takrorlanuvchi badiiy motivlardan hisoblanadi. Aka-uka Rim va Rumlarni ona qashqir emizib katta qilgan. Qoraqalpoq dostoni “Sharyar” da Sharyar va Anjimni ona kiyik emizib katta qilgan. Shu singari ushbu poemada ham ona kiyik qizni emizib katta qilgan deb tasvirlangan. Bunday misollar orqali hatto hayvonat dunyosida

ham, ona-baribir mehirlir ekanligini ko’rsatadi. Hayvonlarning insoniyatga do’st ekanligini tasdiqlaydi. Shu o’rinda, lekin odamzotning ularga nisbatan mehrsizliklari, yovuzliklari ham shoirning ko’plab she’rlarida keltirilgan.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, Ibrayim Yusupov she’riyatidagi animalistik obrazlar qoraqalpoq folklorining boy falsafiy va ramziy ildizlaridan oziqlanib, shoirning ijodida yangi mazmunlar bilan boyitilgan holda namoyon bo’ladi. Shoir xalq ertaklari va afsonalaridagi an’anaviy obrazlarni – bulbul, ilon, ot, bo’ri, boyo’g’li, zag’izg’on va kiyik kabi timsollarni – o’z asarlarida chuqur falsafiy va ijtimoiy g’oyalarni ifodalash uchun ijodiy qayta ishlaydi. Bu obrazlar orqali insoniy qadriyatlar, yaxshilik va yovuzlikning azaliy kurashi, inson va tabiat uyg’unligi hamda ekologik mas’uliyat kabi mavzular badiiy tarzda ochib beriladi. Xususan, shoir folklor obrazlarini shunchaki takrorlash bilan cheklanmay, ba’zan ularni yangicha talqin qilib, xalq an’analarini zamonaviy muammolar bilan bog’laydi. Shu yo’l bilan Ibrayim Yusupov qoraqalpoq milliy folklorini ijodiy davom ettirib, uni nafaqat saqlab qolish, balki rivojlantirish va zamon bilan uyg’unlashtirish vazifasini ham samarali ado etgan. Bu esa uning she’riyatiga chuqur milliylik va umuminsoniylik uyg’unligida yorqin badiiy o’ziga xoslik baxsh etadi.

ADABIYOTLAR

1. Айымбетова Замира Максетбай кызы. И.Юсупов поэзиясында фольклоризм: эволюция, өзлестирүү типлери. Филология илимлери бойынша философия докторы (PhD) диссертациясы. Нөкис – 2022, 42-б.
2. Аймурзаев Ж. Улым, тыңла: Қосықлар хәм поэмалар. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1996. 3-б.
3. Қарақалпақ фольклоры (көптомлық): I том. Қарақалпақ халық ертеклери. «Қарақалпақстан» баспасы, Нөкис – 1977, 186–187-б.
4. Қарақалпақ фольклоры. Т. 77–87 / Бас редактор Н.Қ.Аимбетов; Жуўаплы редакторлар: А.И.Альниязов, Ж.Хошнйазов. ӨзИИА Қарақалпақстан бөлими, Қарақалпақ гуманитар илимлер илимий-изертлеў институты. – Нөкис. Илим, – 2014. – Б. 265
5. Қарақалпақ фольклоры. V том, Қарақалпақ халқ қосықлары хәм салт жырлары. Нөкис: «Қарақалпақстан», 1980, 262-б
6. Козлов С. Как Ёжик с Медвежонком спасли Волка. <https://ejik-land.ru/mist/page13.html>
7. Юсупов И. Өмир, саған ашықпан... – Нөкис: Қарақалпақстан, 1999. – Б. 125–126.
8. Юсупов И. Өмир, саған ашықпан... – Нөкис: Қарақалпақстан, 1999. – Б. 318.
9. Юсупов И. Таңламалы шығармалары. Үш томлық. III том. – Нөкис: Билим, 2018. – Б. 241
10. Юсупов И. Таңламалы шығармалары. Үш томлық. III том. – Нөкис: Билим, 2018. – Б. 243
11. Юсупов И. Таңлаулы шығармаларының еки томлығы, I том. Қосықлар хәм поэма. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1992. – Б. 46–47
12. Юсупов И. Таңлаулы шығармаларының еки томлығы, I том. Қосықлар хәм поэма. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1992. – Б. 105–110
13. Юсупов И. Тумарис хәм басқа поэмалар. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1974. – Б. 126–127
14. Юсупов И. Аласатлы дүнья бул. Қосықлар хәм поэма. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1987. – Б. 98
15. Юсупов И. Аласатлы дүнья бул. Қосықлар хәм поэма. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1987. – Б. 107
16. Юсупов И. Хәр кимнің өз заманы бар (қосықлар хәм қысса). – Нөкис: Қарақалпақстан, 2004. – Б. 14.